

UDK 334

## YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI.

**Yo'ldoshaliyev Maxmudjon Mansurjonovich.**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

[yoldoshaliyevmaxmudjon@gmail.com](mailto:yoldoshaliyevmaxmudjon@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarni-qo'llab quvvatlash va ularning jamiyatda faolligini oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar tadbirkorligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutib, yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati, mavjud muammolar va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar tadbirkorligi, iqtisodiy rivojlanish, bandlik, biznes g'oyalar, innovatsiya, davlat qo'llab-quvvatlashi.

**Экономическое значение развития молодежного предпринимательства.**

**Йулдошалиев Махмуджон Мансуржонович**

Студент Деновского института предпринимательства и педагогики

[yoldoshaliyevmaxmudjon@gmail.com](mailto:yoldoshaliyevmaxmudjon@gmail.com)

**Аннотация :** В настоящее время в Республике Узбекистан поддержка молодежи и повышение их активности в обществе являются одним из приоритетных направлений государственной политики. Молодежное предпринимательство играет важную роль в экономическом развитии страны, способствуя созданию новых рабочих мест. В данной статье анализируются

экономическое значение развития молодежного предпринимательства в Узбекистане, существующие проблемы и перспективы его дальнейшего развития.

**Ключевые слова:** молодежное предпринимательство, экономическое развитие, занятость, бизнес-идеи, инновации, государственная поддержка.

## **Economic Importance of Youth Entrepreneurship Development**

**Yoldoshaliev Makhmudjon Mansurjonovich**

Student of Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

yoldoshaliyevmaxmudjon@gmail.com

**Abstract:** Today, in the Republic of Uzbekistan, supporting youth and increasing their activity in society is one of the key priorities of state policy. Youth entrepreneurship plays an important role in the economic development of the country, contributing to the creation of new jobs. This article analyzes the economic significance of developing youth entrepreneurship in Uzbekistan, existing problems, and future development prospects.

**Keywords:** youth entrepreneurship, economic development, employment, business ideas, innovation, government support.

### **Kirish.**

Yoshlar tadbirkorligi deganda, o'zining biznes g'oyalarini amalga oshirish, o'zini o'zi band qilish va iqtisodiy barqarorlikka erishish maqsadida 18-30 yosh oralig'idagi shaxslar tomonidan tashkil etilgan iqtisodiy faoliyat tushuniladi. Bu nafaqat daromad balki ijodiy fikrlash, innovatsiyalarni joriy etish va shaxsiy rivojlanish vositasi ham hisoblanadi. Tadbirkorlik bu nafaqat moliyaviy daromad manbai, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy muammolarga yechim topish hamda iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda “Yoshlar kelajagimiz” dasturi, “Tadbirkor yoshlar” kredit liniyalari, shuningdek, innovatsion ekotizimni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Davlat tomonidan yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, ularning startap tashabbuslarini rag‘batlantirish, moliyaviy, huquqiy va tashkiliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mavjud tizimda ayrim muammolar, jumladan, moliyaviy resurslardan foydalanishdagi cheklovlar, biznes ko‘nikmalarining yetishmasligi va infratuzilma bilan bog‘liq kamchiliklar ham kuzatilmoqda.

Yoshlar ko‘p hollarda biznes boshlash uchun kerakli kapitalga ega emas. Imtiyozli kreditlar mavjud bo‘lsada barcha hududlarda yoshlar teng ravishda foydalana olmaydi. Ko‘p yoshlar biznesni boshqarish, marketing va moliya asoslarini yetarlcha bilmaydi.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish masalasi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar, iqtisodchi-tadqiqotchilar e‘tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar, asosan, yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni bozor iqtisodiyotiga moslashuvi, hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillash-tirish masalalariga qaratilgan.

### 1-jadval.

#### O‘zbekiston Respublikasi hududlarida yoshlar tadbirkorlik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari (2020-2024 yillar)

№	Hududlar	2020-yil yosh tadbir-	2021- vil	2022- vil	2023- vil	2024- vil	2024-yilda ajratilgan imtiyozli
1	Toshkent shahri	4 200	5 100	6 300	7 500	8 400	980
2	Toshkent viloyati	3 100	3 700	4 800	5 600	6 200	720
3	Samarqand	2 800	3 400	4 200	4 900	5 500	640
4	Farg‘ona viloyati	2 500	3 000	3 600	4 200	4 800	580
5	Andijon viloyati	2 200	2 700	3 300	3 900	4 400	520

6	Namangan	2 000	2 400	2 900	3 400	3 900	470
7	Qashqadaryo viloyati	1 900	2 200	2 700	3 100	3 500	440
8	Buxoro viloyati	1 600	1 900	2 300	2 700	3 000	390
9	Xorazm viloyati	1 400	1 700	2 000	2 300	2 600	350
10	Surxondaryo viloyati	1 500	1 800	2 200	2 600	3 000	360
11	Jizzax viloyati	1 200	1 400	1 800	2 100	2 400	300
12	Navoiy viloyati	1 000	1 300	1 600	1 900	2 200	280
13	Sirdaryo viloyati	800	1 000	1 200	1 400	1 700	240
14	Qoraqalpogʻiston	1 100	1 400	1 700	2 000	2 300	310
	<b>Jami:</b>	<b>26 300</b>	<b>32000</b>	<b>40000</b>	<b>47600</b>	<b>5440</b>	<b>6 680</b>

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2024 yillar davomida O'zbekiston hududlari bo'yicha yosh tadbirkorlar soni o'sganligi ko'rsatilgan.

2020-yilda respublika bo'yicha jami 26,3 ming nafar yosh tadbirkor faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 54,4 ming nafarga yetgan. Hududlar kesimida Toshkent shahri eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan bo'lib, 2020 yildagi 4 200 nafardan 2024 yilda 8 400 nafarga yetdi. 2024 yilda yosh tadbirkorlarni rag'batlantirish maqsadida ajratilgan imtiyozli kreditlar hajmi umumiy (6 680mlrd so'm)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida eng katta ajratmalar Toshkent shahri (980mlrd so'm) ga to'g'ri keladi. Bu esa so'nggi besh yil ichida yoshlar tadbirkorligining qariyb 2 baravar o'sganligini anglatadi. Bu raqamlar yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga davlat siyosatining samarali ekanligini ko'rsatadi. Umuman olganda, jadval ma'lumotlari shuni anglatadiki, O'zbekiston hududlarida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish borasida sezilarli ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar, grantlar, ta'lim dasturlari yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishga, ularni o'z biznesini yo'lga qo'yishga undamoqda.

**Xulosa.** Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Yosh tadbirkorlarning iqtisodiy faoliyatga keng jalb etilishi, avvalo, yangi

ish o'rinlarini yaratish, bandlik darajasini oshirish hamda aholi daromadlarini ko'paytirish orqali ijtimoiy- iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yoshlar tomonidan tashkil etilgan korxonalar innovatsion g'oyalar va zamonaviy texnologiyalar joriy etish orqali iqtisodiyotda raqobat muhitini kuchaytiradi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish milliy iqtisodiyotda barqaror o'sishni ta'minlash, inson kapitalidan samarali foydalanish, innovatsion iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish hamda uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari. – Yoshlar tadbirkorligi rivoji to'g'risidagi statistik ma'lumotlar. 2024-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. – Tadbirkorlik faoliyati ko'rsatkichlari.
3. Isakjanova.S.M. The contribution of youth entrepreneurs to economic development in Uzbekistan. - 2025
4. Alieva E. A. , Sayfiddinov S.A. Features of development of youth entrepreneurship in Uzbekistan. - 2024